

более глубокому пониманию предмета, поскольку материал представлен в наиболее подходящем и понятном виде. Персонализированное обучение, основанное на ИИ, также способствует развитию критического мышления и аналитических навыков студентов, поскольку система может задавать сложные вопросы или предлагать задания на основе текущего уровня знаний учащегося.

В дополнение к персонализации обучения, ИИ играет ключевую роль в автоматизации административных и управленческих задач в учебных заведениях. Системы, основанные на ИИ, могут автоматически управлять расписаниями, организовывать экзаменационные процедуры и обрабатывать академические записи, что значительно снижает нагрузку на преподавательский и административный персонал и позволяет им сосредоточиться на прямых образовательных функциях.

Выводы. Практическое применение цифровых технологий и искусственного интеллекта в высшем образовании не только оптимизирует учебный процесс, делая его более гибким и доступным, но и способствует формированию устойчивых образовательных экосистем, способных адаптироваться к динамическим требованиям современного образовательного и профессионального мира [3, 57].

Основным направлением в создании устойчивых экосистем в высшем образовании является интеграция учебного процесса с современными информационными системами [2, 364]. Такие системы позволяют не только оптимизировать управление ресурсами учебного заведения, но и значительно повышают уровень взаимодействия между студентами и преподавателями. Кроме того, использование инструментов искусственного интеллекта для анализа научных данных способствует развитию исследовательских проектов, повышая качество и конкурентоспособность образовательных услуг [1, 47].

Интеграция цифровых технологий и искусственного интеллекта в систему высшего образования открывает новые горизонты для создания устойчивых и эффективно функционирующих экосистем. Эти технологии не только способствуют повышению качества образования, но и обеспечивают его доступность и адаптивность к меняющимся условиям современного мира, что является залогом успешного развития учебных заведений в долгосрочной перспективе.

Список литературы

1. Генеративный искусственный интеллект в образовании: дискуссии и прогнозы / Л. В. Константинова, В. В. Ворожихин, А. М. Петров [и др.] // Открытое образование. – 2023. – Т. 27, № 2. – С. 36, 38, 47. – DOI 10.21686/1818-4243-2023-2-36-48. – EDN VPMIZK.
2. Круглов, Д. В. Цифровая платформа как инструмент оптимизации бизнес-процессов вуза и внешних партнеров / Д. В. Круглов, В. Е. Ляшенко // Лидерство и менеджмент. – 2025. – Т. 12, № 2. – С. 360, 364. – DOI 10.18334/lim.12.2.122536
3. Кузьминов Я. И., Юдкевич М. М. Университеты в России: как это работает/ Я. И. Кузьминов, М. М. Юдкевич ; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». - М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2021. — С. 57.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIMNING SIFATI VA TARBIYAVIY AHAMIYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurazaqova Sojida Raxmat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti stajor-doktaranti

sojidaabdurazakova9@gmail.com,

Xasanov Zafar Shavkat o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch-doktaranti

zafarhasanov2741@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va tarbiyaviy ahamiyatni yaxshilashga qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi masalalariga bag'ishlangan. Maqolada oliy ta'lim texnologiyalarining roli, samaradorligi, ta'lim muassasalarida ularni qo'llash jarayonidagi muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, ta'lim metodlarini takomillashtirish takliflari hamda tavsiyalari keltirib o'tiladi. Ushbu maqola oliy ta'lim sohasidagi pedagogik jarayonlarni yanada sifatli va samarali tashkil etishda amaliy tavsiyalar berishga intiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, ta'lim sifatini oshirish, tarbiyaviy ahamiyat, innovatsion metodlar, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА И ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Настоящая статья посвящена вопросам применения современных образовательных технологий, направленных на повышение качества образования и улучшение его воспитательной значимости в высших учебных заведениях. Рассматриваются роль, эффективность и проблемы внедрения этих технологий в учебных заведениях. В статье приведены рекомендации и предложения по обогащению системы высшего образования инновационными технологиями, улучшению методов преподавания и усилению их воспитательных функций. Цель статьи - предоставить практические рекомендации для более эффективной и качественной организации педагогических процессов в высшем образовании.

Ключевые слова: Образовательные технологии, повышение качества образования, воспитательная значимость, инновационные методы, развитие системы высшего образования, инновационные технологии.

IMPROVING THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AIMED AT IMPROVING THE QUALITY AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF EDUCATION

Annotation: This article is dedicated to the application of modern educational technologies aimed at improving the quality of education and enhancing its educational significance in higher education institutions. The role, effectiveness, and challenges of implementing these technologies within educational institutions are analyzed. The article provides recommendations and suggestions for enriching the higher education system with innovative technologies, improving teaching methods, and enhancing their educational functions. This article aims to provide practical recommendations for organizing pedagogical processes in higher education more efficiently and effectively.

Keywords: educational technologies, quality improvement of education, educational significance, innovative methods, development of the higher education system, innovative technologies.

Kirish. Oliy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri ta'limning sifatini oshirish va tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish ekanligi ma'lum. Bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda texnologiyalarning roli juda katta bo'lmoqda. Ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga nafaqat zamonaviy bilimlarni o'rganish imkoniyatini beradi, balki, ularning fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va tarbiyaviy ahamiyatni kuchaytirishda esa ko'rib turganimizdek ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash zarurati tobora ortib bormoqda.

Ta'lim texnologiyalarining turlari va ularning ta'limda qo'llanilishi haqida fikr yuritar ekanmiz, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining bir necha turini ko'rishimiz mumkin. Ular o'quv jarayonini yanada interaktiv, samarali hamda qiziqarli qilib borish uchun qo'llaniladi. Quyidagi jadvalda ba'zi ta'lim texnologiyalari turlari, ularning ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi haqida ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

Ta'lim texnologiyasi	Ta'riflari	Qo'llanilishi
Masofaviy o'qitish	Ta'limning masofadan olib borilishi	Zoom, Google Classroom, Moodle kabi platformalar orqali o'qitish
Interaktiv darslar	O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash	Elektron ta'lim platformalarida interaktiv testlar, viktorinalar, muhokamalar
Virtual reallik (VR)	Ta'limda 3D va virtual muhitlardan foydalanish	Tibbiyot, arxitektura kabi sohalarida amaliyot o'rganish uchun VR texnologiyasini qo'llash
Kengaytirilgan reallik (AR)	Ma'lumotlarning real va virtual dunyo o'rtasida uyg'unlashishi	O'quv resurslarida 3D modellar va diagrammalarni qo'llash
Simulyatsiyalar	Haqiqiy hayotdagi vaziyatlarni virtual muhitda ko'rsatish	Kimyo, biologiya, fizika kabi fanlarda laboratoriya tajribalari

Masofaviy o'qitish orqali, masalan, "Coursera" va "Khan Academy" kabi onlayn platformalarda talabalar o'z vaqtida va joyidan qat'iy nazar darslarni o'rganishlari mumkin bo'ladi. Bu usullar ayniqsa pandemiya davrida muhim bo'ldi va ta'limni o'tkazish usulini tubdan o'zgartirib yubordi.

Ta'lim texnologiyalarining tarbiyaviy ahamiyati xaqida ham ko'p fikr yuritishimiz mumkin. Ta'lim texnologiyalari faqat ilmiy bilimlarni uzatishda emas, balki talabalarning axloqiy, ijtimoiy va psixologik o'sishlari va rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Interaktiv metodlar yordamida talabalar o'zlarini faol ishtirokchi sifatida his qilishadi, shuningdek jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Quyidagi jadvalda ta'lim texnologiyalarining tarbiyaviy ahamiyatiga oid muhim jihatlar keltirib o'tilgan:

Ta'lim texnologiyasi	Tarbiyaviy ahamiyati
Masofaviy o'qitish	Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi
Interaktiv darslar	Talabalar orasida muloqotni kuchaytiradi, jamoada ishlashni o'rgatadi
Virtual reallik (VR)	Emotsional va kognitiv rivojlanish uchun eng samarali usul hisoblanadi, talabalar murakkab vaziyatlarni amalda o'rganadilar

Ta'lim texnologiyasi	Tarbiyaviy ahamiyati
Kengaytirilgan reallik (AR)	Talabalar o'rganayotgan materialni chuqurroq tushunadilar, yangi dunyoqarashni rivojlantiradilar
Simulyatsiyalar	Talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, muvaffaqiyatga erishish uchun muhim tajribalar to'pladilar

Shu o'rinda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyalarini yanada samarali qo'llash va ularning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun bir qator takliflar qarab chiqishimiz mumkin:

- O'qituvchilarni tayyorlash va texnologiyalarni o'rgatish. O'qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni ta'limda samarali qo'llashni o'rgatib borish zarur. Ta'lim texnologiyalarini qo'llashda o'qituvchilarning professional malakalarini doimiy ravishda oshirib borish muhim hisoblanadi.

- Innovatsion metodlarni qo'llash. Bu orqali ta'limda ilg'or metodlar, masalan, "flipped classroom" (qarama-qarshi dars) yondashuvi, masofaviy darslar va interaktiv test kabilar joriy etilishi talabalar orasida yanada qiziqarli va samarali o'qish muhitini yaratib boradi.

- Elektron resurslar va platformalar yaratish orqali esa ta'lim jarayonini texnologiyalarga asoslangan resurslar bilan boyitish mumkin bo'ladi. Misol uchun, talabalar uchun interaktiv video darsliklar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni yaratish ta'limning samaradorligini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish va talabalar uchun tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy metodlarni o'qitish jarayoniga joriy etish talabalar uchun nafaqat ilmiy, balki shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini ham yaratadi. Shu boisdan, ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning amaliy jihatlarini yanada takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish, amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va tarbiyaviy ahamiyatni kuchaytirish jarayonlarida ta'lim texnologiyalarining roli ko'rib turganimizdek tobora ortib bormoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim, interaktiv darslar, simulyatsiyalar, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) kabi metodlar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada interaktiv va samarali bo'lishi ta'minlanmoqda. Ta'limning sifatini oshirishda bu kabi texnologiyalar talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, bilimlarni mustahkamlashga, va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkon yaratilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalarining keng qo'llanilishi, ayniqsa interaktiv metodlar va virtual reallik texnologiyalari o'quvchilarga yanada amaliy bilimlar olish imkoniyatini yaratmoqda. Biroq, ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarning malakalarini oshirish, texnologik infratuzilmani mustahkamlash va resurslarni optimallashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Quyida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish jarayonlari tahlillarini qarab chiqamiz:

1. Ta'lim texnologiyalarining Integratsiyasi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayoni asta-sekinlik bilan amalga oshirilmoqda. Biroq, ba'zi muassasalarda texnologiyalarni qo'llashda hali ham infrastrukturaviy va metodologik muammolar mavjud ekanligi ko'zga tashlanadi. Ba'zi o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

2. Masofaviy ta'lim. Masofaviy ta'limning joriy etilishi o'zbek oliy ta'lim tizimida katta ijobiy o'zgarishlar yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zoom, Google Classroom, Moodle kabi

platformalar orqali darslarni masofadan o'tkazish imkoniyati talabalar uchun qulaylik yaratdi, ayniqsa chekka hududlardagi talabalar uchun. Biroq, ba'zi joylarda internet tarmog'i hamda texnik vositalarning cheklanganligi bu usulning samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Innovatsion pedagogik yondashuvlar. Interaktiv darslar va o'quv jarayonining barcha qatnashchilarini faol jalb etishga yo'naltirilgan metodlar muhim rol o'ynaydi deyish mumkin. Masalan, "flipped classroom" (qarama-qarshi dars) yondashuvi talabalarni o'z bilimlarini mustahkamlash va jamoaviy ishlarni rivojlantirishga, amalda qo'llashga undaydi. Biroq, bu yondashuvni keng joriy qilish uchun o'qituvchilarni o'qitish va metodologik qo'llanmalar bilan ta'minlash zarur.

4. Tarbiyaviy Ahamiyatni Oshirish. Ta'lim texnologiyalarining tarbiyaviy ahamiyati ham albatta e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishi uchun interaktiv, kreativ metodlar, hamda virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini qo'llash tarbiyaviy jarayonni yaxshilashga katta yordam beradi. Bu texnologiyalar talabalarni nafaqat ilmiy jihatdan emas, balki shaxsiy jihatdan ham rivojlantirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish jarayoni ijobiy o'zgarishlar keltirmoqda, ammo bu jarayonni yanada takomillashtirish zaruriyati tug'ilib bormoqda. Ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi o'quvchilarni ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi, lekin bu jarayonning samarali bo'lishi uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi deb o'ylaymiz:

Takliflar	Izohlar
1. O'qituvchilarni ta'lim texnologiyalariga moslashtirish	O'qituvchilarning innovatsion metodlar va texnologiyalarni o'zlashtirishini ta'minlash uchun malaka oshirish dasturlari zarur. O'qituvchilarni yangi texnologiyalar va pedagogik metodlar bilan tanishtirish, ularni muntazam ravishda malaka oshirish kurslariga jalb qilish kerak.
2. Texnologik infratuzilmani kuchaytirish	Ta'lim muassasalarida zarur texnologik vositalar va platformalarni rivojlantirish, Internet tezligini va ta'lim platformalarini takomillashtirish muhimdir. Shuningdek, ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun barcha texnik vositalar va tizimlar yaxshilanishi kerak.
3. Tarbiyaviy yondashuvlarni takomillashtirish	Ta'lim texnologiyalarini faqat ilmiy bilimlarni oshirishda emas, balki shaxsiy va axloqiy rivojlanishda ham qo'llashga e'tibor qaratish zarur. O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda texnologiyalardan foydalanish kerak.

Jadvalda keltirilgan takliflar, ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanilishi va o'qituvchilar hamda talabalar uchun ijobiy ta'sirlar yaratish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlarni yaxlit ko'rsatadi. Har bir taklifning amalga oshirilishi ta'limning sifatini oshirishga, shuningdek, tarbiyaviy ahamiyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanilishi, ta'lim sifatini oshirishga va tarbiyaviy ahamiyatni kuchaytirishga xizmat qiladi deya olamiz. Biroq, bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda tayyorlash, texnologik infratuzilmani mustahkamlash va resurslarni samarali boshqarish zarur hisoblanadi.

Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalarining oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish va tarbiyaviy ahamiyatni kuchaytirishdagi o'rni, ularning samarali qo'llanilishiga oid aniq tavsiyalar

va misollar keltirildi. Jadval va chizmalar orqali ta'lim texnologiyalarining amaliy qo'llanilishiga oid muhim jihatlar aniq ko'rsatib berildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov, X. (2019). Oliy ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Tashkent: Ma'naviyat.
2. Zohidov, A., & Rahimov, R. (2021). Interaktiv metodlar va ularning oliy ta'lim tizimida qo'llanilishi. Oliy ta'lim jurnali, 5(2), 34-40.
3. Bekmurodov, M. (2020). Tarbiyaviy ta'sir va ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi. Toshkent: Ilm Ziya.
4. Smith, J., & Clark, L. (2018). Innovative teaching methods in higher education: A global perspective. International Journal of Educational Research, 45(3), 231-246.
5. Bermudez, S., & Lopez, M. (2019). Application of blended learning in higher education: A case study. Journal of Educational Technology, 31(2), 56-62.
6. Ibragimov, Sh. (2022). Ta'limning sifati va tarbiyaviy ahamiyatini oshirishda yangi metodlar. Oliy ta'lim va innovatsiyalar, 6(3), 122-135.
7. Sharipov, R., & Saidov, J. (2021). Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning oliy ta'limda qo'llanilishi. O'zbekiston ta'limi, 12(4), 77-84.
8. Kozlova, O. V. (2020). Virtual reality in education: Opportunities and challenges. Educational Technology Review, 10(1), 98-104.

DAVLAT TASHKILOTLARINING BITIRUVCHIGA BO'LGAN EHTIYOJI VA TALABLARI

Daminova Barno Esanovna

Qarshi davlat universiteti dotsenti

barnod@mail.ru

Bozorova Irina Jumanazarovna

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

i.bozorova667@gmail.com

Pardayeva Muqaddas Muzaffar qizi

Qarshi davlat universiteti magistri

muqaddaspardayeva60@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi sharoitida davlat tashkilotlarining zamonaviy bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va ularga qo'yiladigan talablar atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari bilan davlat sektoridagi hamkorlik, amaliyot tizimi va mehnat bozoriga mos ta'lim strategiyalari muhokama qilinadi. Tahlillar orqali ta'lim sifatini oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: bitiruvchi, davlat xizmati, malaka, kompetensiya, bandlik, mehnat bozori, kadrlar siyosati.

THE NEED AND REQUIREMENTS OF STATE ORGANIZATIONS FOR A GRADUATE

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the needs of state organizations for modern graduates and the requirements for them in the conditions of the Republic of Uzbekistan. It also discusses cooperation with higher education institutions in the public sector,